

# **DEVELOPMENT OF ENERGY EFFICIENT MID-RISE RESIDENTIAL HOUSES**

*Z.O. Barnoyeva*

*assistant, Jizzax politexnika instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ishlab chiqarishni maxalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish xamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kopyeratsiyasini kengaytirish bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** turar-joy binolari, blok kvartira, metodik klassifikatsiya.

## **ENERGIYA TEJAMKOR O'RTA QAVATLI TURAR JOY UYLARNI RIVOJLANTIRISH**

*Z.O. Barnoyeva*

*assistant, Jizzakh Polytechnic Institute*

**Abstract:** The article describes the continuation of the policy of promoting the localization of production, and, first of all, the substitution of imports of consumer goods and components, and the expansion of cross-sectoral industrial cooperation.

**Key words:** residential buildings, apartment block, methodical classification.

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini va bu jarayon qishloq axolisini turmush darajasiga xam katta ta'sir ko'rsatmokda. Qishloqlarda katta va kichik Fermer xo'jaliklari, kichik biznes, xususiy tadbirdorlik ishlab chiqarish korxonalari va xokazolar paydo bulmoqda. Bular o'z navbatida qishloq axolisining turmushi yaxshilanishiga olib keladi va o'z navbatida turar joy binolarini strukturasini birmuncha o'zgarishiga olib keladi.

Masalan: katta fermer xo‘jaliklarida esa molxona, tovukxonalar turar joy binolarini birga ishlanib uning katta qismini tashqil qilmoqda. Fermer xo‘jaligini boshqarib unda ishlaydigan oila a’zolari xar kuni ishga borib kelish uchun ma’lum vaqt sarflaydilar. Ishning yaxshi borishi uchun ularning yashash joylari fermaga yaqin joyda bo‘lishi ma’qul bo’lib qoladi. Shunday qilib ferma xo‘jaligi atrofida turar joy binolarini ko’riladi. Vaqt o‘tishi bilan ferma xo‘jaligi kattalashib ishchilar soni ko‘payadi, natijada turar joy binolari va agrosanoat majmualari paydo bo’ladi[1].

Sobiq Sovet ittifoq davrida, shaxar turar joy tizimi tarkibidagi, xo‘jalik, tadbirkorlik va boshqa turdagи ishlarni jamoat, davlat korxona va tashqilotlariga berilgan edi. Shu sababli oila turar - joyida, oilaning biologik ijtimoiy rivojlanishi, uy-ruzg’or ishlari, dam olish, mexmonlarni kutib olish, marosimlarni o’tqazish kabilar qoldirildi. Bu borada sotsiologik-demografik ilmiy- tadqiqotlar o’tqazilib, turar joy uylar va ularning kvartiralarini qanday rivojlantirish va narmativlarni aniqlash borasida ishlar olib borilib, turar joylarni loyixalash va ko‘rish bo‘yicha KMK lar yaratildi. Shu KMK lar bo‘yicha kvartira va turar - joylar loyixalandi va qurilishlar amalga oshirild [2,3].

Davlatimiz mustaqillikka erishilgandan keyin, bosh qomusimizda, xamma mulklarga ruxsat berildi. Qishloq va shaxarlarda kvartiralar, uylar privitizatsiya qilinib, xususiylashtirildi. Natijada, Respublikamizning qishloq, tuman markazlari va shaxarlari axolilari xususiy xo‘jalik tadbirkorlik va ishlab chiqarish bilan shug’ullana boshladilar va turar - joylarini shu yo‘nalishga moslashtira boshladilar.

Natijada, qishloq va tuman markazlari bu jarayonga to’liq tayyor emasligi ma’lum buldi. Bu jarayonni boshqarish uchun tuligicha me’yoriy xujatlar Respublika arxitektura va qurilish kumitasi, shaxar va tuman xoqimiyatlari tomonidan ishlab chiqilmagan. Rasmlarda keltirilgan faktlardek respublika qishloq va tuman markazlari stixiyali turar joy qurilishini olib bormokdalar.

Shu boisdan ishga an’anaviy xalq uylarida bu masala qanday yechilgani va turar - joy tizimida qanday joylashtirilgan? Bu masalani O‘zbekiston tarixiy

shaxarlarining an'anaviy xalq uylari tizimi o'rganildi, loyixalash va qurilish tajribalari taxlil va xulosalar qilindi.

Ikkinchi bosqichda, xozirgi kunda axolining mexnat faoliyatini turar joylarda olib borishi bo'yicha ilmiy kuzatishlar o'tqazildi. Natijada mexnat faoliyati turlari bo'yicha qishloq, tuman markazlari uchun kam qavatli turar joy uylarning turlari aniqlandi:

Xo'jalik, xo'jalik-tadbirkorlik, xo'jalik-ishlab chiqarish, ishlab chiqarish-tadbirkorlik.

Shu yuqorida keltirilgan turar joy uylarning xo'jalik tiplari zonalari sxemasi (modeli) va o'rta qavatli uylarning namunaviy tiplarining zonalari sxemasi (modeli) aniqlandi .

Tadqiqot natijalari ko'rsatadigan maxalliy sharoit (ijtimoiy - demografik, tabiiy - iqlim, moddiy va industrial bazasi va boshqalar,) lar xususiyatidan kelib chiqib Navoiy viloyatida qishloq turar joylarning me'morchilik yechimiga, ya'ni uning xajmiy - rejaviy va xajmiy-fazoviy tashqil etilishi, konstruktiv yechimlarga va butun turar - joy imorat qurilishi muxitini shakllantirishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, qurilish uslublarini qo'llash xamda zamonaviy ko'rish material va konstruksiyalar birgalikda talablar shartlari turar - joy guruxini tashqil etadi. Bu shart va talablar qishloq turar - joylar me'morchiligini aniqlaydi, uning shaxarsozlik xarakatini ta'minlash, qavatlari reja va konfiguratsiyasi, kompozitsiyasi (masshtab, proporsiya, ritm) orientatsiya, insolyasiya kabi masalalarni belgilaydi.

Turar joylarni xajmiy - rejaviy shakllantirish va xajmiy fazoviy tashqillashtirishda tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki asosiy faktor - bu tabiiy - iqlim sharoitlaridir. Ushbu konuniyatning kullanishi, sotsial- demografik, tabiiy-iqlimiyl faktorlari turar joy arxitekturada, turar -joy shaxar qurilishida va ularning taraqqiyoti asosida turar- joylarni loyixalash, turar-joylarning rivojlanish istiqboli va yangi avlodlarni ishlab chiqishda mana shu qonuniyatlar yotadi [4].

Shaxar turar - joylarning rejaviy tuzilishi va xajmiy - fazoviy kompozitsiyasini kompleks va sistemali tadqiqot qilish natijasida, ishda, quyidagi tamoillaridan iborat shaxar xovli turar-joylarning arxitekturaviy-rejaviy tuzilishi va xajmiy - fazoviy tashqillashtirish va shakllantirishning asosiy tamoyillari va usullari aniqlandi.

Respublikamizda va chet el xorij mamlakatlari loyixa va tajribalari bo'yicha, o'rta qavatli turar-joy uylarning «blok+kvartira+xovli xo'jalik+tadbirkorlik+ blok-uy» bo'yicha progressiv turlari aniqlandi.

1. Blok kvartira va sotsial-fazoviy turlari bo'yicha blok-uy va blok kvartira xamda blok+kvartiralar xo'jalik bloklarini diffyerensiallash va nomenklaturaga kvartiralarni guruxlab birlashtirib va tashqillashtirish.
2. O'rta qavatli xovlili turar - joy uylar tadqiq kilinishi natijasida uzimizning va xorij mamlakatlari turar-joyning uylari progressiv blok+kvartira+uylaridan istikbolda turar-joy uylari omenklurasini tuzish.
3. Ishlab chiqilgan model asosida o'rta qavatli xovlili turar-joy uylarini shakllantirish, tashqillashtirish va rivojlantirish talablari aniqlandi.

O'zbekistonning mintaqaviy maxalliy xududlarining tabiiy-iqlim sharoitlari bo'yicha turar joylarni loyixalash me'moriy - qurilish ishlarini amalga oshirishda ma'lum bir o'zlarining maxsus talablariga ega. Ya'ni respublika sharoitida doimiy omillardan - tabiiy-iqlim sharoitlaridan quyosh radiatsiyasining yuqori darajasi, tez o'zgaruvchanligi va quruqligi, ammo shu bilan birga regional farqlanishga ega. Bu asosiy faktor respublikaning barcha xududlarida, yozgi davrda xavo xaroratining yuqoriligi, termik muddatning davomiyligi (2-3 oy davom etadi) diskomfortlik sharoitlar xukumronligi xisoblanadi. Shuning uchun bu faktor juda muxim bulib, yoz davrida turar- joylarning kvartira xonalarini va turar - joy imorat qurilishi xududlarini bosh faktorlardan ximoyalash va ularda yangi turi - «o'suvchi uy»ni yaratish imkonini beradi [5].

Taklif kilinayotgan «o'suvchi-uy» - «blok-kvartira+xovli+uy» bir vaqtning

uzida 1 -2-qavatli bulib keyingi oilaning sifat o`zgarishi bo`lganda 3-qavatli xattoki 4-qavatli uylarga aylanishi mumkin. Bundan tashqari, «Blok-kvartira+xovli+uy» birlashtirilayotganda, gorizontal va vertikal kommunikatsiya - galareya-koridorlar ko`cha tizimiga kiritiladi. Bu tizim uylarni guruxlashtirishning turar- joy majmualari ya`ni maxallani tashkillashtirishda asosiy kompozitsiyaviy usul bo`lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. 1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoevning 2016 yil 21 oktabrdagi “2017- 2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyixalar bo‘yicha arzon uy - joylar ko‘rish” dasturi to‘g‘risida.
2. Barxin B.G. Metodika Arxitekturnogo proektirovaniya-M. Stroyizdat, 2003.
3. Voronina R.L. Narodnietraditsii O`zbekistana.-M.Stroyizdat Arxitekturi i gradostroilstva, 1951-167s.
4. Djabbar O.S. Noviy tip jiliща dlya Buxary. Stroitelstvo i arxitektura O`zbekistana, 1980, №7, s24-28.
5. Zmeul S.G. Arxitekturnaya tipologiya zdaniy soorujeniy. M. Stroyizdat. 2001- 240s.
6. Maxmudova N.A. Pardozlash va issiqlik izolyasiya materiallarining texnologik asoslari. Darslik. T., “O`zbekiston faylasuflar milliy jamiyati”, 2013
7. Samig’ov N.A. “Bino va inshootlarni ta’mirlash materialshunosligi”. Toshkent. Darslik. Faylasuflar milliy jamiyati. 2011y. 399b